

## O'QUVCHILARNI MEDIA MUHITIDAGI MA'NAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH

**To'rayeva Ma'mura Fazliddin qizi**  
*Navoiy vilayot Navbaxor ko'p tarmoqli texnikumda O'qituvchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh o'quvchilarimizni media muhitdagi o'rni, unga qarshi ulardagi ma'naviy immunitetni mustahkamlash haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *zararli odatlar, globallash, g'oya, ma'naviyat, mafkura, tahdid, immunitet, smartfonlar, noutbuklar, kompyuterlar, raqamli texnologiya.*

Bugungi kun jamiyatni sayin taraqqiy etib, insoniyat uchun misli ko'rilmagan imkoniyat va qulayliklar taqdim etmoqda. Ammo shu bilan birga jamiyatda mavjud bo'lgan o'zaro qarama qarshilik qoidasiga ko'ra illatli hodisa va qarashlar ham rivojlanib bormoqda. Bugungi kun axborotdan foydalanishdagi tezkorlik insoniyat uchun taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'layotgan bo'lsa, shuning bilan yovuz niyatga xizmat qiluvchi axborotlarning mavjud bo'lishi odamlarga ayniqsa yoshlarga o'zining salbiy ta'sirini ham o'tkazib kelmoqda. Zamonaviy axborot resurslari, axborot almashinuvining tavsif va xususiyatlari tobora o\_zgarib bormoqda. Kompyuter texnologiyasi va Internetning keng tarqalishi o'z navbatida qog'oz shaklidagi axborotlarning o'rnini elektron shakldagi axborotlar egallab olishiga yo'l bermoqda. Bu holat hujjatlar va ma'lumotlarga emas, balki badiiy matnlar, nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlarga ham taalluqlidir. Internet tarmog\_idan foydalanish imkoniyati axborotlarni mislsiz tezlikda, yer yuzining istalgan nuqtasidan turib uzatish va qabul qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda yoshlарimizni turli xil yot va zararli g'oyalalar va vayronkor g'oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma"naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan yuksak malakali mutaxassis kadrlar etib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu global o'zgarishlar davrida uzlusiz ta"lim tarbiya tizimining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu boisdan ham o'tmishimiz va kelajagimiz uchun qudrat bag'ishlaydigan milliy iftixor tuyg'usi bilan biz yangi avlodlarni tarbiyalashimiz, o'z milliy davlatchiligidimizni mustahkamlab borishimiz lozim. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlodga etkazishning infrastrukturasi va texnologiyasini yanada takomillashtirish masalasi zararli va yot g'oyalarni, mafkuraviy tahdidlarni bartaraf qilish orqali ularning mafkuraviy immunitet shakllanishi muhim omili ekanini hayotiy tajribaning o'zi isbotlamoqda. Xalqimizni turli g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash,

jamiyatda mafkuraviy immuniet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. O'zligimizni, odob – axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta "siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni akllantirish orqaligina milatni mafkurasini asrash va yanada yuksaltirishimiz mumkin. Mafkuraviy immunitet yuksaltirishda ta "lim-tarbiyaning ahamiyati kattadir. Shu boisdan ham, ta "lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "Shaxs manfaati va ta "lim ustuvorligi"dir. Shunday ekan, bugun barcha davlatlar ta "limiga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda.

Bugungi kun yoshlari hayotini texnologiya va virtual olam shunchalik egallab olganki uning ta'siri ostida hatto maktab ta'lim tizimi ham shunga moslashib bormoqda. Sababi, zamonaviy pedagok o'z navbatida bolalarning mashg'ul bo'layotgan mashg'ulotlari haqida to'liq tasavvur etishi va o'z navbatida shu orqali undan himoya qilish yoki targ'ib qilish xususiyatini shakllantiradi. Axborot almashinuvida ishtirokchi bo'lgan yoshlarning foydali axborotlardan ko'ra vayronkorlik yoki salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi axborotlardan foydalanishga intilishi ko'p bo'lishi oqibatida ularning to'lig'icha onlayn muhit shakllantirib o'zlar uchun alohida kontent shakllantirishi mavjud muammolarni yanada rivojlantirib bormoqda. O'z navbatida ularning fikriy irodasida virtuallik va real hayot chegarasini aniq me'zonlar bilan ajratib olish ko'nikmasi mavjud emas. Kattalar xordiqqa bag'ishlangan vaqtidan ish vaqtni ajratishga majbur bo'layotgan bir paytda, Yoshlar xordiqni ish vaqt va maktab muhitiga olib kirishga urinmoqdalar. Garchi Yoshlar, ayniqsa shahar Yoshlari, bolalikdanoq kundalik hayotda texnologiyalardan foydalanishga ko'nikkan bo'lsalar-da, zamonaviy Yoshlar - bu hodisa bilan to'qnashayotgan birinchi avlod. Ularda media bilan o'zaro ta'sirlashish va atrofdagi narsalarni idrok etish tug'ma qobiliyati yo'q.

Yosh media foydalanuvchilarini vizual va kommunikativ madaniyatning yangi toifasi vakillaridir. Yoshlar, moda haqidagi blogni yuritayotgan o'spirin moda olamiga o'z ta'sirini ko'rsata olishiga yoki yosh musiqachi turli ijtimoiy kontentlar orqali dunyoga mashhur bo'lib ketishi mumkinligiga ishonadi. Ular uchun «mashhur insonga aylanish» o'zini namoyon qilish hamda shu orqali tor yoki keng doiradagi, ba'zan xalqaro miqyosdagi foydalanuvchilar qo'llab-quvvatlashi va e'tirofiga sazovor bo'lishdan iboratdir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali Yoshlar ayni damda o'zidan olisda bo'lgan yaqinlari bilan muloqotda bo'lsh va yangi do'stlar orttirishidan tashqari Internetda o'zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko'rishi mumkin. Uyatchan va kamgap inson tarmoqda ochiq va sergap bo'lishi, o'zlashtirish darajasi past o'quvchi onlayn o'yinlarda o'zini aqli strateg va harbiy qo'mondon sifatida va yana ko'plab ko'rinishda namoyon qilishi mumkin. Virtuallikdagi —qahramonlik||ning tugallanish nuqtasi bo'lgan real hayotda to'qnash kelgan taqdirda ularning hayoloti bilan reallik umuman mos kelmasligi ularni hatto virtuallikda qolish istagini kuchaytiradi. Shuningdek,

mafkuraviy immuniteti to`g`ri shakllangan va o`zini munosib tuta oluvchi yoshlar guruhida ko`plab Yoshlar tarmoqdagi do`stlari bilan real hayotda ham uchrashib turadi.

Hozirgi kunda o`quvchilarning “Internet kafe”larda kompyuter qarshisida o’tirib kunlarini o’tkazishi sir emas. U yerda yoshlarimiz nimalarni o’rganayapti? Ular bizning milliy mentalitetimizga yot bo’lgan, behayo, jangari, insonda agressiv holatlarni kuchaytiradigan kinofilmlar tomosha qilmoqda, har xil o’yinlarni ishtirokchisiga aylanmoqda. Bunday zararli odatlarning hammasi insoniyat salomatligi va ruhiyatiga katta putur yetkazadi. Shuni aytish kerakki, uzoq muddat televizor ko’rish, uyali telefondan ko’p foydalanish hamda kompyuter bilan uzoq vaqt ishlashning, zararli va ayanchli oqibatlari haqida to’liq tushunchaga ega emaslar. Zararli odatlar aqliy va jismoniy kamolotning makkor dushmani. Ko’rinib turibdiki, zararli odatlar o’smir ta’lim tarbiyasiga, jismoniy kamolotiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. O’smirlik asosan 11 dan 16 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davrda o’smir organizmining o’sish va rivojlanishi tezlashgan bo’lishi, organ va organizm funksiyalarini takomillashuvi kabilar bilan xarakterlanadi. Ko’p milliard dollarlik elektron ko’ngil ochar sohalar global miqiyosida innovatsiyalar kengayishda davom etmoqda. Raqamli media shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarga ega. Smartfonlar, noutbuklar, kompyuterlar va o’yin pristavkalaridan ortiqcha foydalanish o’quvchilar salomatligi uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Meyordan ortiq foydalanish xulq-atvorga qaramlik (masalan, qimor o’yinlari) bilan mos keladigan disfunktional (ishlamaydigan, buzilgan) xatti-xarakatlar namunasiga aylanishi mumkin. Ko’plab raqamli media faoliyati, jumladan ijtimoiy media va onlayin o’yinlar xatti-xarakatlarni kuzatish, ijtimoiy ma’lumotlarni manipulyatsiya (boshqarish, ta’sir o’tkazish) qilish va boshqa taktikalarni qo’llash uchun mo’ljallangan. JSST video o’yinlarni o’ynashda chegaradan chiqib ketish xolatlarini rasman tan oladi, ba’zi ekstremal foydalanuvchilarini “patologik” foydalanuvchilar xisoblanadi.

Sog’liqni saqlash bo’yicha tavsiyalar ma’lum tadbirlarga masalan, onlayn o’yinlarga jalb qilish yoshini kechiktirishni va shu vaqt ichida ekran vaqtini cheklashni o’z ichiga oladi. Biroq, yuqori foydalanish imkoniyati va arzonligi, raqamli qurilmalar uyda, ishda va maktabda borligi bunday tavsiyalarni amalga oshirishni kiyinlashtiradi. Zararli odatlarni oldini olish xarakatlari quyidagilarni o’z ichiga oladi: Birlamchi profilaktika umumiyligi axolining barcha vakillariga tushunarli bo’ladi. Raqamli texnologiyalarga asoslangan muammolar bilan bog’liq zararlar xaqida xabardorlikni targ’ib qilishni o’z ichiga oladi. Xaddan tashqari foydalanish, o’rtacha foydalanish darajasiga rioya qilish va sog’lom turmush tarzini tarzi, parxez va jismoniy mashqlar shular jumlasidan. Birlamchi profilaktika quyidagilar:

1. Ta’lim resurslari, masalan sog’lom foydalanish bo’yicha yo’riqnomalar (kuniga foydalanish soatlarini cheklash), internetdan unumli foydalanishni oshirish uchun raqamli savodxonlik kurslari, jismoniy faoliyat bo’yicha tavsiyalar (kuniga 30 daqiqa jismoniy mashqlar) va targ’ib qilishga tuzilgan tashqi faoliyatlar;

2. Onlayn o'yin xizmatlarini majburiy o'chirish kabi qonun chiqarish yoki tartibga soluvchi xarakatlar, kuning ma'lum vaqtlarida va o'yin maxsulotlarini ma'lum vaqtda sotishni oldini olish ishlarini amalga oshirish nazarda tataladi;

3. Texnologik choralar, masalan ota-onanazoratlari, o'yin pristavkalarida vaqt chegarasini sozlash, smartfonlarni olib yurish o'rniiga soatlar taqish, qalqib chiquvchi oyna kurilmada sarflangan vaqt xaqida bildirishnomalar;

Uchinchi darajali profilaktika strategiyalari yuqori xavf ostida bo'lgan shaxslarga qaratilgan. Bu shaxslarga ambulatoriya davolash imkoniyatlari va statsionar klinikalar yoki reabilitatsiya markazlari xizmat ko'rsatadi.

O'quvchilarni texnomaniyadan uzoqroq turishi uchun:

1. Texnologik qurilmalarni ishlatish o'rniiga qiziqarli interfaollardan foydalanish.  
(darslarda, darsdan ham tashqari)

2. Texnologiyalarda o'yin o'ynashdan oldin ro'yxat tuzing.

3. Texnologiyalarda o'yin o'ynash vaqtleri sekin-asta kamaytirib borish (darxol to'xtatib qo'ymaslik kerak). 4. Mukkasidan ketishni yo'qotish yo'llari - yotoqxonaga telefon olib kirmaslik - telefon, smartfonni o'rnni yoqtiradigan narsalar bilan almashtirish - mobil qurilmalarni 30 minut oshiq ishlatmaslik.

Bolalar yotoqxonasidan elektron qurilmalarni olib tashlash va uzoqroqqa joydashtirish. Bolalar texnologiya vaqtini kamaytirgandan so'ng ularni sovg'alar bilan xursand qilish. Bolani qiziqib ko'rayotgan videolarini kuzatib, videodagilarni xaqiqiy xayotda bajartirish. (virtuallikdan-reallikka yo'l) Masalan: janglarni ko'rib borsa, sportga olib borish. Internetga qaramlik darajasini sezilarli kamaytirishda maslaxat dasturlari belgilanadi, vaqtni boshqarish, shaxslararo munosabatlar va sog'liq muammolarini yaxshilashda samaralidir. (SBT) Kognetiv hulq- atvor psixoterapiyasi depressiyada ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Sport bilan shug'ullanish zararli odatlarning barcha belgilarini yaxshilashni ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, o'quvchilar bo'sh vaqtlarini ko'proq o'z qiziqishlariga qarab o'tkazadilar. Badiiy kitoblar o'qish, bichish-tikish, teleko'rsatuvalar ko'rish, rasm chizish o'quvchilar uchun 1,5-2,5 soatni tashkil qilishi kerak. To'garaklar, sport musobaqalariga qatnashish haftasiga 2 marta 45 minutdan 1,5-2 soatgacha bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar kun tartibidan o'z-o'ziga xizmat qilish va ijtimoiy-foydali mehnat ham o'rin egallashi zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Шавкат Мирзиёев. Тошкентда бўлиб ўтган "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби" мавзуидаги анжуманда сўзлаган нутқи. 15.06.2017 йил. Тошкент.

2. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари. Ўкув-амалий қўлланма. - Т.: Extremum-press, 2017.

3. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta 'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ М.Х. Тохтаджанова, С. Низонова, Ж. Гасанбайев, М.Усмонбайева, С. Мадиарова, А. Қолдібекова, Н. Низонова, Н. Сайдиахмедов; О \_збекистон Республикаси Олий ва о'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Тошкент: « О \_збекистон faylasuflari milliy jamiyatি» nashriyoti, 2010.

4. Ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси / Б.Ходжаев, М.Махмудова – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2016.

5. Очиқ ахборот тизимларида ахборот- психологик хавфсизлик: ўқув қўлланма Умаров Б., Ахмедова М. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги ; Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари ун-ти : - Т. Chashma Print, 2013.

6. Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. - М.: Либерея-Бибинформ, 2007.